



STYLISTIC SYNONYMS AND THEIR USE IN POETRY

Mohida Xoliqulova¹, Siddiqova Iroda Abduzuhurovna²

¹ National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Comparative linguistics, linguistics

Department of Translation Studies (English)

xoliqulovamohida@gmail.com,

² Supervisor

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4897869>

ARTICLE INFO

Received: 20th May 2021

Accepted: 25th May 2021

Online: 30th May 2021

KEY WORDS

stylistic synonyms, poetry, imagery, poetic skill.

ABSTRACT

This article shows the peculiarities of stylistic synonyms and their application in poetry. This work provides a classification of stylistic synonyms, stylistic synonyms in poetry and examples from Uzbek and English poetry.

STILISTIK SINONIMLAR VA ULARNING NAZMDA QO`LLANILISHI

Mohida Xoliqulova¹, Siddiqova Iroda Abduzuhurovna²

¹ Mirzo ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy Universiteti

Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik

tarjimashunoslik yo`nalishi (ingliz tili)

xoliqulovamohida@gmail.com

² Ilmiy rahbar

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-May 2021

Ma`qullandi: 25-May 2021

Chop etildi: 30-May 2021

KALIT SO`ZLAR

stilistik sinonimlar, nazm, obrazlilik, shoir mahorati.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola stilistik sinonimlarning o`ziga xos xususiyatlari va ularning she`riyatda qo`llanilishini ko`rsatib beradi. Mazkur ish stilistik sinonimlarning klassifikatsiyasi, she`riyatda stilistik sinonimlar hamda o`zbek va ingliz she`riyatidan misollar taqdim etadi.

Tilda nutqning go`zal va ta`sirchan bo`lishiga hissa qo`shuvchi vositalar talaygina. Shulardan biri sinonimlar bo`lib, ular nutqning rangba-rangligini oshiradi. Sinonimlar - bu nutqning bir qismiga tegishli bo`lgan va ma'nosi bir xil yoki juda yaqin bo`lgan so'zlardir. Sinonimlarni bir-biri bilan almashtirilganda nutq o'z ma'nosini yo'qotmaydi. Masalan, "variant" so'zini

"versiya" so'zi bilan osongina almashtirish mumkin.

H.Jamolxonov «Hozirgi o`zbek adabiy tili» kitobining Leksik sinonimiya qismida ifoda semalarining har xilligidan kelib chiqib, leksik sinonimlarni quyidagi turlarga ajratadi:



1. *Ma'no sinonimlari* (ideografik sinonimlar). Bunday sinonimlar ma'no qirralari bilan farqlanadi.

2. *Nutqiy sinonimlar* - nutqning u yoki bu turiga xoslanishi bilan o'zaro farqlanadigan sinonimlar.

3. *Uslubiy sinonimlar* (stilistik sinonimlar). Bunday sinonimlarning leksik ma'nosi ijobiy yoki salbiy bo'yoqlar (uslubiy semalar) bilan qoplangan bo'ladi, ayni shu uslubiy semalar sinonimlarning uslubiy vosita sifatidagi qiymatini belgilaydi. Masalan, *jilmaymoq, iljaymoq, irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq va irshaymoq* leksemalarining barchasida bitta leksik ma'no - "ovozi chiqarmay miyig'ida kulish" hodisasini nomlash bor, ammo shu ma'no *jilmaymoq* leksemasida bir oz ijobiy, *iljaymoq* leksemasida esa bir oz salbiy bo'yoq bilan qoplangan, bu salbiy bo'yoq *irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq va irshaymoq* leksemalarida yanada ortib boradi.

O'zaro umumiy ma'nosi bilan birlashib, stilistik ottenkasi - bo'yog'i va nutqda ishlatilish doirasi jihatidan farqlanadigan sinonimlar stilistik sinonimlar deyiladi.

Sinonimlar nutqda ishlatilish doirasi jihatidan ham o'zaro farqlanadi. Masalan, barcha nutq stillarida ishlatiladigan umumnutq so'zi, dudoq - badiiy nutq so'zi; shamol - umumnutq so'zi; sabo - badiiy nutq so'zi; rohat - umumnutq so'zi; eslamoq - umumnutq so'zi; xotirlamoq - rasmiy nutq so'zi; yo'qlamoq - so'zlashuv nutqi so'zi. Bu xil sinonimlar stil (uslub) sinonimlari deyiladi.

Shuningdek, ishlatilish doirasi chegaralangan yo chegaralanmagan bo'lishi mumkin. Masalan, *keksa, qari, oqsoqol,*

nuroni, mo'ysafid kabi bir sinonimik qatorni tashkil etuvchi so'zlar orasida *qari* so'zining ishlatilish doirasi keng. Bu so'z insondan tashqari, hayvonlar uchun ham qo'llaniladi: *qari ot, qari tulki* kabi. Lekin *oqsoqol, nuroni, mo'ysafid* sinonim so'zlarining ishlatilish doirasi chegaralangan. Bunday holatlar ishlatilish doirasining keng - torligi sinonimlar ma'no hajmiga, ya'ni ularning keng yoki tor ma'no ifodalashiga bog'liq.

Abdulla Oripov she'rlarida ko'zga tashlanib turadigan muhim hususiyatlardan biri shoirning har bir so'zni qadrlagani, uni o'z va ko'chma ma'nolarini topib o'z o'rnida qo'llay olganligidir. Bunday usul she'rlarning rang-barangligini ta'minlab, ularning xalq qalbi va ongiga muhrlanib qolishi uchun imkon yaratgan.

Shoir talaffuzi, yozilishi har xil, lekin ma'nosi bir xil bo'lgan, qo'shimcha ma'no tashuvchi, emotsional bo'yog'i bo'rtgan so'zlarni o'ziga xos mahorat bilan qo'llay olgan ijodkoridir.

Shoir she'riyatida grammatik hamda semantik sinonimlar qo'llangan. Bu sinonimlar uslublararo va o'z va o'zlashgan qatlam aro hosil qilingan. Abdulla Oripov she'riyatida bir sinonimik qatordagi so'alarning qo'llanilishi ko'p uchraydigan holat hisoblanadi. Fikrimizni shoirning mashhur «Munojot» deb nomlangan she'ridan olingan parcha orqali isbotlasak:

Qani, ayt maqsading nimadir sening,

Nechun tilkalaysan bag'rimni ohang.

Nechun kerak bo'ldi senga ko'z yoshim

Nechun kerak, rubob, senga shuncha g'am.

Eshilib, to'lg'anib ingranadi kuy,



*Qaylardan tug'ilmish bu ohu-faryod
Kim u yig'layotgan Navoiymikin,
Va yo may kuychisi Hayyommikin, dod.
Yetar, ey cholg'uvchi bas qil sozingni,
Bas, yetar ko'ksimga urmagin xanjar.*

E'tibor bergan bo'lsangiz, ushbu parchada bir necha uslubiy va leksik sinonimlar mavjud. Xususan, bag'rim-ko'ksim; ohang-kuy-soz; ko'z yoshi, g'am, ingramoq, to'lg'anmoq, yig'lamoq, ohu-faryod, dod; kuychi, cholg'uvchi; She'r tarkibida bu kabi sinonim so'zlarning keltirilishi she'r ma'no doirasining kengayishiga, fikring rang-barangligini ko'rsatishga, ta'sir kuchini oshirishga xizmat qiladi. Yuzaga chiqarilishi lozim bo'lgan fikrning ta'sirli, o'rinli va ma'noli bo'lishida ko'p ma'noli so'zlarning o'z o'rnida bor. Shoir mahoratini ana shu so'zlarni o'z o'rnida qo'llay olganida ko'rish mumkin.

She'r tarkibida bir xillik, so'z takrorining oldini olish bilan birga ta'sirini, bo'yoqdorligini, emotsiani namoyon qiladi. Shoir she'rlarida «tun» so'zi ham o'zining sinonimik qatori bilan faol qo'llangan.

Endi stilistik sinonimlarning qo'llanilishi jihatidan romantik she'riyatning namoyondalaridan bo'lgan ingliz shoiri V. Vordsvors ijodiga nazar tashlaymiz. U o'zining «The solitary reaper» she'rida yozadi:

*Behold her single in the field,
Yon solitary Highland Lass!
Reaping and singing by herself
Stop here or gently pass.
Perhaps the plaintive numbers flow
For old, unhappy, far-off things.*

She'r sarlavhasida *solitary* so'zi *alone*, *single*, *enjoying being alone* so'zlari bilan sinonim bo'ladi. *By herself* so'zi esa *alone*, *without anyone else* ma'nosini anglatadi. *Far-off* - *distance*, *far away*, *remote* so'zlari bilan uslubiy sinonim bo'lib keladi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tili nutqda nozik ma'no ottenkalarini hamda rang-barang stilistik bo'yoqlarni bera oladigan sinonimlarga boy. Mashhur o'zbek shoir va yozuvchilari, so'z ustalari sinonimlardan mohirlik bilan foydalanib kelganlar. Ko'rinadiki, sinonimlar bir xil ma'nosi bilan birlashuvchi sinonim so'zlar qatorini tashkil qilsa, fikr va his-tuyg'ularni aniqroq, ravshanroq ifodalashga imkon beradigan stilistik ma'nolariga ko'ra o'zaro farqlanadi. Ijodkorlar o'z she'rlarining ta'sir kuchini oshirishda, she'rning ma'no ko'lamini kengaytirishda, obrazlilikni ta'minlashda, umuman olganda, konnotativ ma'noni yuzaga chiqarishda metaforalardan unumli foydalana olishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. 2011.
2. Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining qisqacha lug'ati. Toshkent. Fan. 1983.
3. Vafoyeva M. O'zbek tilida frazeologik sinonimlar va ularning struktural-semantik tahlili. Toshkent. 2009.
4. Fareed. H. A stylistic study of synonym in W. WordsWorth's poetry. University of Kufa. 2016